

**ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA ZIYOLI
OBRAZINING G‘OYAVIY-FALSAFIY, BADIY-ESTETIK TALQINLARI**

**ИДЕЙНО-ФИЛОСОФСКАЯ И ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ИНТЕЛЛИГЕНТА В РОМАНЕ УЛУГБЕКА
ХАМДАМА «МУВОЗАНАТ»**

**IDEOLOGICAL-PHILOSOPHICAL AND ARTISTIC-AESTHETIC
INTERPRETATION OF THE INTELLECTUAL CHARACTER IN ULUGBEK
HAMDAM’S NOVEL MUVOZANAT**

Shoxruxbek Maxmidjonov

Farg‘ona davlat universiteti

Adabiyotshunoslik kafedrasi

o‘qituvchisi

shoxruxbekmaxmidjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida ziyoli obrazining poetik tahlili amalga oshirilgan. Romanda ziyoli qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy mas’uliyati badiiy tasvirlar orqali yoritilgan. Qahramonlarning ilm-fan va ma’naviyat o‘rtasidagi kurashi, vijdon va haqiqat izlashdagi azoblari orqali ziyolilik mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ziyoli, “Muvozanat”, ruhiy muvozanat, badiiy tahlil, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, ma’naviy iztirob, adabiyotshunoslik, vijdon azobi, ziyolilik fojiasi.

Аннотация: В данной статье проведён поэтический анализ образа интеллигента в романе Улугбека Хамдама «Мувозанат». В романе посредством художественных описаний раскрываются душевные переживания, внутренние противоречия и социальная ответственность интеллигентных героев. Через борьбу героев между наукой и духовностью, страдания в поисках совести и истины раскрывается сущность интеллигенции.

Ключевые слова: интеллигент, «Мувозанат», душевное равновесие, художественный анализ, современная узбекская литература, духовные переживания, литературоведение, муки совести, трагедия интеллигенции.

Annotation: This article provides a poetic analysis of the intellectual character in Ulugbek Hamdam’s novel Muvozanat (“Balance”). The novel depicts the emotional experiences, internal conflicts, and social responsibilities of intellectual protagonists through artistic description. The essence of intellectualism is revealed through the characters’ struggles between science and spirituality and their torment in the pursuit of conscience and truth.

Keywords: *intellectual, Muvozanat, spiritual balance, literary analysis, modern Uzbek literature, moral anguish, literary studies, pangs of conscience, intellectual tragedy.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ziyoli obrazi ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning badiiy in’ikosi sifatida muhim o‘rin tutadi. Ziyoli – bu nafaqat bilimli inson, balki jamiyatda mas’uliyatli pozitsiyani egallagan, o‘z qalbi, tafakkuri va axloqi orqali jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsata oladigan shaxsdir. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” qissasi ana shunday ziyolining hayotdagi qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar, ruhiy azoblar qarshisidagi holatini chuqur badiiy tahlil qilgan asarlardan biridir.

Asarda “muvozanat” tushunchasi markaziy g‘oyaviy metafora sifatida xizmat qiladi. Bu – ruhiy, axloqiy, ijtimoiy muvozanat. Muallif asar orqali “haqiqatni anglagan, ammo uni ayta olmaydigan ziyoli” fojiasini ko‘rsatadi. Bu fojia ortida esa jamiyatdagi haqiqatning qadrsizligi va yolg‘onning kuchayib borayotganini yoritib beradi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani mustaqillikning dastlabki yillarida yozilgan. Asarda o‘tish davrida inson hayoti va psixologiyasida ro‘y beruvchi o‘zgarishlar, jamiyatning turli qatlamidagi odamlarning turmush tashvishlari, iqtisodiyot va ma’naviyat uyg‘unligi kabi g‘oyalar o‘sha davr ziyolilari obrazlari orqali ochib berilgan. Asardagi asosiy qahramon tarix fani o‘qituvchisi Yusufdir. Qolgan personajlar taqdiri ham ma’lum bir o‘rinlarda bu obraz bilan bog‘liq holda tutashdi. Yangi sharoit sabab ro‘y bergan tabaqalanish, nafaqat jamiyatda, balki oila, do‘stlar davrasida ham murakkab ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Asarda turfa taqdirlar qismati muvozanat mezonida tasvirlanadi. Asar qahramonlarining biri: ziyoli, ilm olish, o‘z bilimini kimgadir ulashish, yangilik yaratish xayoli bilan yashaydi, ammo shaxsiy hayoti parokanda; ikkinchisi pul, mol-dunyo, boylik yig‘ish yo‘l izlagan, lekin hayot mazmunini yo‘qotgan; uchinchisi, mansabga ega bo‘lish, katta amal kursisiga o‘tirish, odamlarni boshqarish orzusida yongan biroq yakunda tamoman aksi, moddiy va ma’naviy tomondan o‘z yaratgan taqdirining qarami. Asarda bularning birlashtirib turgan yagona omil esa tarozi pallasining bir xilda ushlolmasligi, muvozanatning buzilishi edi. Asardagi Yusuf obrazi aynan shu talato‘plarda o‘z qarashlariga sodiq qolgan va bu jarayonlardan “yuzi yoruq” holda chiqqan qahramondir. To‘g‘ri Yusufning ham boshiga tushgan ko‘rguliklar oilasida, ishida, ruhiyatida yuz bergan ziddiyatlar talaygina. Muhimi bu kurashlarda uning qalbidagi soflik, insoniy hislarning darz ketmaganligidir. G‘olib bo‘lish muhim emas, balki yiqilganda qayta turishda kuch topa olish muhimdir. Yusuf o‘z dunyosida shunday muvozanatni ushlay olgan o‘tish davrining chinakam qahramonidir. Asarda ziyoli qatlamning moddiy yetishmovchiliklari, pul topish ilinjida turli ko‘chalariga bosh urishlari, moddiy va ma’naviy muvozanatnig buzilishlari turli taqdirlar fojeasi orqali ochib berilgan. Shu ma’noda Yusuf hayotiga ko‘zgu sifatida asrada Ergash va uning alamli fojeasi ko‘rsatiladi. Farq esa Yusuf taqdir sinovlariga bardoshli, kurashuvchan, Ergash bo‘lsa bu sinovlarda irodasizlik qilib natijada hamma hamma narsasini boy bergan ziyoli qatlam vakili.

“...Kuni kecha men poezdda bir nechta yoshlar bilan gaplashib keldim. Va iqror bo‘ldimki, butunlay yangi avlod etishib kelyapti ekan. Ular tarbiyasida o‘tmishga nisbatan keragidan ortiq tanqidiy ruh, bugunni esa behad ideallashtirishga o‘xshagan qusurlarni

payqagan bo‘lishimga qaramay, mulohaza yurita-yurita oxiri sevinib ketdim. Sababki, ular o‘tmishni qo‘msab qiynalmaydi, bu yoqda do‘ppi tor kelganda u yoqqa talpinib, o‘zi shundoq ham qiyin ahvolni battar murakkablashtirmaydi, katta avlodlarga o‘xshab har bir kishi o‘z botinida ikkiga bo‘linib ketmaydi, balki biri u sohada, kimi bunda o‘zligini yangi kelajakni bunyod etish ishiga bag‘ishlaydi. To ular bor ekan, ertaga – qurilayotgan yangi davlatda bugun oyoq osti bo‘lib yotgan qadriyatlarning, qonun-qoidalaru tartib-intizomning qaytadan qad rostlashi muqarrar”¹⁵.

Asardan keltirilgan parchadan ham bilishimiz mumkinki, Yusufning qalbida ertangi kunga umid, o‘tmish hayotiga norozilik, bugun uchun esa shukronalik va kurashish mavjud. “Baralla aytish mumkink, Yusuf romanchiligimizda o‘tish davri deb atalgan murakkab tarixiy jarayonning qahramonidir.”¹⁶ Yozuvchi olam va odam xususidagi mushohadakor fikrlar, har bir ziyoli fitratdagi evrilishlar, jamiyat maqsadining kelajak sari talpinishigacha zukkolik bilan badiiy qamrab oladi. Asarda yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan g‘oya va qarashlari kitobxon qalbiga osonlik bilan yuqtiradi. Asl iste’dodning muvaffaqiyati ham shunda.

Asarda ziyolilik masalasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan yoritiladi. Asadning ichki muvozanatini buzayotgan asosiy sabab – bu jamiyatdagi nosog‘lom muhitdir. Atrofdagi ikkiyuzlamachilik, riyo, do‘stlikning soxtalashuvi, vijdon erkinligining cheklanishi kabi holatlar ziyolining or-nomusini ezadi. Ayniqsa, Yusufning o‘z dardini hech kim bilan bo‘lisha olmasligi, uning ichki dunyosidagi yolg‘izlik hissi – ziyolining jamiyatda begona bo‘lib qolganligini ko‘rsatadi.

U ichki azoblar, vijdon qiynog‘i, yolg‘on va haqiqat o‘rtasida kechayotgan muvozanat izlash jarayonini boshidan kechiradi. Uning ichki monologi, fikrlari, xotiralari orqali ziyolining qalb harorati, ruhiy qiyofasi ochib beriladi. Asadning ichki iztiroblari shunchalik chuqur tasvirlanganki, o‘quvchi uni anglab, unga hamdard bo‘lishga majbur bo‘ladi. Bu jihat Ulug‘bek Hamdamning qalamiga xos ruhiy tahlil kuchini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa o‘rnida Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” asari zamonaviy o‘zbek adabiyotida ziyoli obrazining yangi badiiy talqinini taqdim etadi. Asad obrazi orqali yozuvchi ziyolining jamiyatdagi murakkab o‘rnini, uning ichki azoblari va ruhiy kurashlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Bu obraz – faqat badiiy qahramon emas, balki bugungi kunning ko‘plab ziyolilariga xos hayotiy haqiqatlar yig‘indisidir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: Noshir, 2019
2. U. Hamdam. Vatan haqida qo‘shiq. T.: Akademnashr. 2014
3. Oripov A. “Zamonaviy o‘zbek nasrida ziyolilik masalasi”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, № 4
4. Nurullayev B. O‘zbek nasrida zamonaviy qahramon. Toshkent: Fan. 2010
5. Tursunov S. “Ulug‘bek Hamdam nasri poetikasi”. Filologiya masalalari, 2018

¹⁵ U. Hamdam. Vatan haqida qo‘shiq. T.: Akademnashr. 2014. B 251.

¹⁶ U. Normatov. Ijodkorning haroratli so‘zi. Turonzamin nashriyoti. T. B- 15